

**BOLALIKNING IKKI HAYOTI***O'zDJTU**Xorijiy Til va Adabiyot Fakulteti**Do'smamatova Lola Sirojiddin qizi**Email: loladosmamatova@gmail.com**Tel: +998940456706***Kirish**

Bolalik shunday bir beg'ubor davrki, mening nazarimda, uning qadrini har bir ulg'aygan inson ich-ichidan his qilsa kerak. U har qanday erkalik ko'tariladigan, hammadan o'zgacha mehr oladigan, jo'shqin va haroratli, orzu-umidlarga to'la unutilmas damdir. Shunday bo'lsa-da, har bir bolalik mehr-muhabbatga, baxtli onlarga to'la deya olmaymiz. Bu bir kam dunyoda kimgadir Alloh tomonidan go'zal bolalik berilsa, boshqa birovga esa achchiqroq qismat beriladi. XIX asr ingliz adabiyotining yorqin vakili Ch.Dikkinsning (1812-1870) uvol bo'lgan bolaligi va XX asr o'zbek adabiyotining so'nmas chirog'i Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek (1905-1968) mehrga to'la bolaligini yuqoridagi fikrlarga misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Bularning har birida o'ziga xos bolalik davri, uning azoblari, shodliklari bor, shu bilan birga, ular turli davrlarda va turli mamlakatlarda yashab o'tishgan.

Kalit so'zlar: bolalik, bolalar mehnati, adib asarlari, tahlikali davr, avtobiografik roman.

Muhokama va natijalar

XIX asr ingliz adabiyotining yorqin vakili Charlz.Dikkins (1812-1870) birmuncha tahlikali davrda yashagan. Bu paytda, Angliyada turli qotilliklar, zo'ravonliklar va jinoyatlar avj olib ketgan edi. Sud hokimiyati bo'lar-bo'lmasga odamlarni qamar va ularni og'ir jazolarga tortar edi.¹ Shu bilan birga, uning bolaligi birmuncha qiyinchiliklarga to'la bo'lgan. Ch.Dikkins tug'ilgandan keyin otasining

¹ Boynazarov F. "Jahon adabiyoti". Toshkent, "Musika nashriyoti". 75-bet.



kasbi tufayli ular boshqa shaharlarga ko'chib o'tadilar. Uning bolaligi sarson-u sargardonlik va sayohatlarda kechadi. Bo'lajak adibning oilasi otasining qarzlarini tufayli moliyaviy qiyinchiliklarga duch keladi. Uning otasi Marshalsi qarzdorlarning qamoqxonsiga yuboriladi. 12 yosh bo'lgan Ch.Dikkins otasining qarzlarini to'lashi kerak edi va shu sababli, ishlashga majbur bo'ladi. U poyabzal lagani ishlab chiqaruvchi zavodda ish boshlaydi, u yerdagi mehnat esa juda og'ir bo'lib, uni jismoniy jihatdan qiynab qo'yadi, biroq uning onasi ishdan bo'shashiga ruxsat bermaydi. Shunday qilib, Ch.Dikkins eng beg'ubor, gullab-yashnagan bolalik davrini og'ir mehnatda o'tkazishga majbur bo'ladi.² Yozuvchi bolaligini shunday eslaydi: "Mening na maslahatgo'yim, na nasihatgo'yim, na ruhlantiruvchim, na ko'ngilga taskin beruvchim, na menga yordam beruvchi va na meni qo'llab-quvvatlovchi odamim bo'lgan, umuman, men hech kimdan muruvvat kutmaganman, go'yo Arshga ketayotgandek yolg'izlanib qolganman". Oilasidagi qiyinchiliklar tufayli Ch.Dikkinsda maktabda o'qish, ta'lim olish uchun imkoniyat bo'lmagan, faqatgina juda qisqa muddatda xususiy maktabda tahsil olgan.³

Bundan farqli o'laroq, XX asr o'zbek adabiyoti vakili bo'lgan Oybek (1905-1968) esa o'ziga xos muhitda ulg'ayadi. Oybek (1905-1968) ham biroz qaltis davrda yashab o'tgan bo'lsa-da, uning yumshoq va samimiy bolaligi bo'lgan. Yozuvchi bolaligi haqida shunday eslaydi: "Otam yoshligida bo'zchi, keyin Xumson va Yangibozor qishloqlarida baqqollik qilgan. O'qimagan, jahli tez, tajang bir odam edi. Onam jismoniy kuchsiz, lekin aqlli, ziyrak, rahmdil va har ishga epchil xotin edi. Do'ppi, jiyak va qo'l ishlari bilan ko'p mashg'ul bo'lardi. Ishdan bo'shagach, ko'p vaqt kitob o'qirdi".⁴ Demak, Oybekning (1905-1968) moliyaviy ahvoli Ch.Dikkinsnikidan ancha yaxshi bo'lgan va shu bilan birga, u yoshligini ishlash uchun emas, balki o'qish uchun sarflagan. Adib avval eski maktabda, so'ng yangi maktabda o'qigan, keyinchalik esa o'z yo'lini oliy ta'lim muassasalarida o'qish bilan davom ettirgan. Oybekda tahsil olish imkoniyatining bo'lganligi ham Allohning unga bergan bir marhamati desak, hech mubolag'a bo'lmaydi. Bu ikki

² Efferrit.com.<https://uz.efferit.com>.

³ Ma'lumot.ru.<https://saviya.uz>.

⁴ S.Mirzayev "XX asr o'zbek adabiyoti". Toshkent. "Yangi asr avlodi". 2005



adib ham o'sha davrdagi voqealarga, o'zining boshidan o'tgan hodisalarga shunchaki ko'z yumib keta olmaydi va bu borada biri avtobiografik xarakterga ega "David Copperfield" asarini yozsa, biri "Bolalik" qissasiga qo'l uradi.

Ch. Dikkinsning "David Copperfield" romanida avtobiografik kelib chiqish bilan birga, kundalik hayotning g'ayrati uchun ma'lum bir his bor. Romanda Ch. Dikkinsning kambag'allarga nisbatan yomon munosabatda bo'lishlari, sanoatda ishlaydigan, og'ir mehnat qiladigan va shu kabi tabaqa vakillariga juda oz himoya choralari bo'lgan Viktoriyan jamiyatining ijtimoiy tanqidi va qarashlari mavjud.⁵ Hikoya Devidning bolaligi bilan boshlanadi, u baxtsizdir. Devid tug'ilmasdan oldin uning otasi vafot etadi, onasi esa boshqa erkakka turmushga chiqadi va u o'gay ota qo'lida ulg'ayadi. Albatta, o'gay ota uni o'z farzandiday qabul qilmaydi, unga ko'p tazyiqlar o'tkazadi, bu holatda esa onasi unga hech qanday yordam bera olmaydi. Uning ulg'aygan muhitini anglab olish uchun quyidagi jummalarning o'zi kifoya: *"Mr Murdstone took me, very slowly, upstairs to my room. When we were there, he suddenly twisted my head under his arm". "Mr Murdstone, sir, please don't beat me!" - I cried. Mr Murdstone hit me once with the cane. It hurt so much that I turned my head and bit his hand. Then he beat me very hard and I thought that he was going to kill me. He shouted as he beat me. I screamed and cried... At last the beating stopped. Mr Murdstone went away, locking my bedroom door behind him. I lay on my bed in great pain. I felt wicked".* - "Janob Murdstone meni juda sekin yuqori qavatdagi xona,ga olib bordi. Biz u yerda bo'lganimizda u birdan boshimni qo'lining ostidan burib qo'ydi.

"Janob Murdstone, janob, iltimos, meni urmang," - men yig'ladim. U meni bir marta tayoq bilan urdi. Shunchalik urdiki, boshimni burib qo'lini tishladim. Keyin u meni qattiq urdi va u meni o'dirmoqchi deb o'yladim. U meni kaltaklagancha baqirdi. Men qichqirdim va yig'ladim...Nihoyat kaltaklash to'xtadi. Mr Murdstone mening yotoqxonam eshigi orqasidan qulflab ketdi. Men qattiq

⁵ Ma'lumot.ru.<https://saviya.uz>.



og'riqdan karavotga yotdim. Men o'zimni juda yomon his qildim". Devid shunday bir shavqatsizliklar va zo'ravonliklar orasida ulg'ayadi.⁶

Adabiyotimiz vakili Oybek (1905-1968) esa "Bolalik" qissasini esdalik janrida yozadi. Bu avtobiografik qissaning bosh qahramoni yozuvchining o'zi – Musaboy. Asarda Musaboyning tarjimai holi xalq hayoti, davr hodisalari bilan uzviy bog'liq holda tasvirlangan. Qissada Musaboyning bolalik chog'larini hikoya qilish zahirida o'sha yillardagi xalq hayotining keng manzaralari chizilgan. Oybek (1905-1968) "Bolalik" qissasini yozish bilan o'zining bolalar dunyosini, kichkintoylar psixologiyasini qanchalik chuqur bilishini namoyon etdi. Chunki bu qissada bolalar xarakteri va ruhiyatining ko'z ilg'amas darajada nozik bo'lgan murakkab tomonlari ham mohirlik bilan ochib berilgan.⁷

Xulosa

Biz bu ikki adib hayoti va ular qalamiga mansub ikki asarni o'qiganimizda shuni anglaymizki, ular yashagan davrlar qanchalik tahlikali bo'lmasin, qanchalik qiyinchiliklar ko'p bo'lmasin, ulardagi ilmga bo'lgan ishtiyoq, sabr-qanoat, chidamlilik kabi ulug' fazilatlar bu adiblarga, keyinchalik, o'chmas nom va buyuk bir hayotni in'om qildi. Bir narsa a'yonki, boshqa mamlakatlardan farqli o'laroq, bizning xalqimiz tanti va mehribon xalq. O'zbek xalqining hayotida har qanday mushkulot bo'lganda ham u o'z bolalarini ko'z qorachig'idek asraydi va ularni hech kimga xafa qildirib qo'ymaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Charliz Dikkins "David Copperfield ". 30-bet.
- 2.Internet material. Ma'lumot.ru.<https://saviya.uz>.
3. S.Mirzayev "XX asr o'zbek adabiyoti". Toshkent. "Yangi asr avlodi".2005
4. Boynazarov F. "Jahon adabiyoti". Toshkent, "Musiqqa nashriyoti".75-bet.
5. Internet material.Efferit.com.<https://uz.efferit.com>.

⁶ Ch. Dikkins." David Copperfield".

⁷ S. Mirzayev "XX asr O'zbek adabiyoti". Toshkent.Yangi asr avlodi.2005.